DOI

Usmonova D.
Asaka tuman 52-umumta'lim
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA OTA-ONA VA MAKTAB PEDAGOGLARINING XAMKORLIGI

Annotatsiya: Yaqin yillar davomida misli ko'rilmagan darajada ta'lim sohasiga e'tibor qaratilmoqda. Bu katta e'tibor, abatta, ta'lim samaradorliogini oshirish maqsadidadir.Zamon rivojlanib borar ekan, barcha sohalar kabi ta'lim sohasi ham rivojlanib bormoqda. Aslida ta'lim sohasini rivojlantirmay turib boshqa sohalarni rivojlantirib bo'lmaydi, desak xato bo'lmaydi. Ta'lim samaradorliogini oshirish uchun amalga oshirilayotgan bu harakatlar bir yoki bir necha kishining mehnati bilangina o'z samaradorligini berib qo'ymaydi.
Kalit so'zlar: pedagogika, ta'lim tarbiya.

Usmanova D.
Asaka District 52-general education
elementary school teacher

THE PERSISTENCE OF PARENTS AND SCHOOL EDUCATORS IN IMPROVING ELEMENTARY SCHOOL STUDENT LITERACY

Annotation: *an unprecedented level of attention has been paid to the field of education for years to come. This is a great consideration, abatta, it is advisable to increase the effectiveness of Education.As the Times develop, the field of education, like all fields, is developing. In fact, it is not a mistake to say that other areas cannot be developed without the development of the educational sphere. These actions, carried out to increase the effectiveness of education, do not give its effectiveness until the labor of one or more people knows.*
Keywords: *pedagogy, educational upbringing.*

Barchamizga ma'lumki, o'quvchilar savodxonligini oshirishda ota-ona va maktab pedagoglarining xamkorligi eng muhim omillardan hisoblanadi. Hozirda bu hamkorlikning mustahkam bo'lmasligiga bir necha omillar ta'sir etayapti deb o'ylayman. Fikrimcha, bular quyidagilar:

Birinchidan, ota-onaning farzandining maktabda yaxshi bilim olishi uning kelajakda qiynalmay o'z o'rnini topa olishi uchun eng muhimi ekanligiga ishonchining past ekanligi, o'qimay ham yaxshi yashash mumkinligiga

https://wordlyknowledge.uz

ishonchining balandligi. Bunga ota-onaning o'z tajribasi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, ota-onaning o'z oldiga qo'ygan maqsadini, o'z faoliyatini ustun qo'yishi. Bunga ota-onani avval men oyoqqa turib, hayotda o'z o'rnimni topib olay, pul topa olish sharoitlarimni va uydagi shart-sharoitlarimni to'g'irlab olay, so'ng barcha e'tiborimni farzandlarim ta'lim- tarbiyasiga qarataman, degan o'y- hayollari sabab bo'lishi mumkin. Ammo, unda kech bo'lgan bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, ota-onaning farzandiga bilim berayotgan ustozini yetarlicha hurmat qilmasligi. Bunga o'qituvchinig o'z bilim, tajriba jihatidan, xattoki, moddiy jihatdan boshqalardan ustun ekanligini ko'rsatib bera olmaganligi sabab bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, o'qituvchi o'quvchisiga ta'sir etish darajasining sustligi. Bunga o'qituvchining o'quvchilarni o'z faniga to'la qiziqtira olmaganligi sabab bo'lishi mumkin.

Beshinchidan, ota-onaning, avvalo, onaning bolaga berilayotgan topshiriqlarni tushunmasligi, bu haqida ma'lumotga ega emasligi. Farzandini kuzatib borishi uchun uning o'zida yetarli bilim bo'lmaganligi ham bunga asosiy sabab bo'lishi mumkin. Buning isbotini 1-sinf ota-onalarining hamkorlikdagi faoliyati eng yuqori darajada bo'lib, ular ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi sinfga o'tganda sustlashib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Yuqori sinfga o'tganda esa ota-onaning farzandi o'qishlari ustidan nazorat, ko'proq, ularning, farzandlarining darslarda olgan baholari asosidagina bo'lib qoladi. Bu davrda ota-onalar farzandlariga yordam berishlari qiyinlashadi. Shuning uchun ham faqat nazorat qilish bilangina cheklanadilar. Bola uchun esa bu kamlik qiladi, o'z oilasida ham olgan bilimlarining tez-tez takrorlaishi va qo'llanilishi, yani kompetensiyaning paydo bo'lishi olgan bilimlarining unutilmas bo'lishiga ko'proq xissa qo'shar edi.

Bu omillar o'qituvchining ota-ona bilan doimiy hamkorlikda ishlay olmasligiga sabab bo'ladi. Bu muammolarni qanday hal qilishimiz maqsadga muvofiq?

Ota-onaning farzandining maktabda yaxshi bilim olishi uning kelajakda qiynalmay o'z o'rnini topa olishi uchun eng muhimi ekanligiga ishonchining past ekanligi, o'qimay ham yaxshi yashash mumkinligiga ishonchining balandligini yo'qotishimiz kerak yoki unga to'g'ri yo'nalish bera olishimiz kerak. Buni o'quvchi va ota-ona bilan muntazam suhbatlar jarayonida amalga oshiramiz. Bolalarni har tomonlama yetuk shaxs bo;lib yetishi lozimligi haqida berishimiz kerak. Hozir yaxshi o'qimay turib ham yaxshi pul topsa bo'layapti, ammo ertaga ham huddi shunday bo'lishiga kim kafolat bera oladi, degan savolni tez-tez o'rtaga tashlab turishi lozim. Shunday zamonlar keladiki, zamon o'qiganniki bo'ladi,o'qimagan insonlar esa hayotda qiynalib yashaydilar va doimiy qiyin mehnatlar qilishga majbur bo'ladilar, deb o'quvchilar va ularning ota-onalari ongiga singdirib borish zarur.

https://wordlyknowledge.uz

O'qituvchining o'quvchisiga ta'sir etish darajasining sustligi. Bu holat juda ko'p hollarda uchraydi. Chunki sinfda 30-40 nafar o'quvchi bo'lsa, ularning hammasi ham bir xil bo'lmaydi. Ularning har birining o'z harakteri, dunyoqarashi va qiziqishlari, xattoki, fiziologiyasi har xil. O'qituvchi ularning har biriga kerakli gapni topib gapirishi, ularga ta'lim-tarbiya berishda o'ziga xos yondoshishi kerak bo'ladi. Bu muammoning birinchi, asosiy yechimi sinfdagi o'quvchilar sonini 20-25 nafar atrofida bo'lishi kerakligida deb bilaman. Ozroq bolani nazoratda tutib turish, darslar davonida har birini ko'zdan qochirmay o'zlashtirish, uqish darajasini ko'zlaridan uqib boorish oson bo'ladi. Shu bilan birga o'qituvchi psixolog, artist, o'z faninig bilimdoni bo'lishi, bola qalbini sezib turishi lozim bo'ladi.

Ota-onaning, avvalo, onaning bolaga berilayotgan topshiriqlarni tushunmasligi, bu haqida ma'lumotga ega emasligi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar savodxonligini oshirishda ota-ona va maktab pedagoglarining xamkorligini oshirishdagi bu muammoni hal etish uchun, avvalo, ota-onalarga, ayniqsa onalarga biryilda 2 marta bo'lsa ham o'rganiladigan mavzular yuzasidan tushuncha berish lozim bo'ladi, deb o'ylayman.

Hozirgi, darsliklar tez-tez o'zgarayotgan, o'qitish uslublariga o'zgacha yondoshilayotgan, o'quvchini yodlashga emas, tushunishga, fikrlashga katta e'tibor qaratilayotgan vaqtida esa ota-onalar va maktab pedagoglarining hamkorligi juda muhim hisoblanadi. Farzandi kelajagi uchun befarq bo'lmagan ota-onalar va o'z kasbini sevuvchi, halol mehnat qilib, izlanib kelayotgan pedagoglar safi kundan-kunga kengayishiga chin qalbimdan ishonaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Shavkat Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak, "O'zbekiston" nashriyoti Mamlakatimizni 2016yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza.
2. " O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Farmoni, PF-5712. 2019 yil 29- aprel.
3. " O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: "Sharq", 1997 yil. 39-bet.

https://wordlyknowledge.uz